

## **KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA ISHLAR ETARLI DARAJADA**

Joriy yil 1-maydan 24-maygacha Suv xo‘jaligi vazirligining rasmiy kanali orqali ijtimoiy so‘rov o‘tkazildi (<https://t.me/TGminwater/23468>).

**“Suv xo‘jaligi vazirligi va uning tizim tashkilotlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni yetarli darajada deb hisoblaysizmi?”** mavzusidagi onlayn so‘rovda **366 nafar** respondent ovoz berdi.

Ulardan **31 foizi** “Ha, yetarli darajada” degan javobni belgilagan.

**28 foizi** “Yo‘q, yetarli emas” javobini bergan bo‘lsa, **9 foizi** korrupsiya mutlaqo yo‘q, deb hisoblaydi. Respondentlarning **13 foizi** ushbu savolga javob berishga qiynalishini aytgan.

Natijalardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, **so‘rov ishtirokchilarining katta qismi** Suv xo‘jaligi vazirligi va uning tizim tashkilotlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni yetarli darajada deb hisoblaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Proezidentining 2018-yil 4-iyulda qabul qilingan “Davlat organlari huzurida Jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3837-sonli qarorida jamoatchilik kengashiga davlat organi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o‘tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo‘yicha takliflar tayyorlash vazifasi qo‘yilgan.

Ijtimoiy so‘rov ana shu vazifalardan kelib chiqib, Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tashabbusi bilan o‘tkazildi.

So‘rov ishtirokchilarining **28 foizi** Suv xo‘jaligi vazirligi va uning tizim tashkilotlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yetarli darajada emas deb ovoz bergenligini e’tiborga olgan holda **Jamoatchilik kengashi tizimda korrupsiyaga qarshi kurashishni kuchaytirish bo‘yicha rahbariyatga takliflar kiritadi.**

**Axborot xizmati**

Saytdagi manzili: <https://gov.uz/uz/suvchi/news/view/12366/>